O'zbekistonda holat bosqichma-bosqich rivojlanish xarakteriga ega. Bir tomondan, 2026-yil 27-martda qabul qilinib, 29-iyunda kuchga kirgan O'RQ-1126-son Qonun islom bank faoliyati uchun huquqiy maydon yaratdi va Markaziy bank huzurida Islom moliyasi kengashi tashkil etildi. Boshqa tomondan, «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi 2021-yil 23-noyabrdagi O'RQ-730-son Qonunda takaful yoki islom sug'urtasi tushunchasi nazarda tutilmagan bo'lsa-da, sug'urta bozorini tartibga solish vakolati 2023-yil 2-sentabrdagi PQ-291-son Qaror bilan Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga o'tkazilgan bo'lib (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-291-son Qarori, 2023), Agentlik tomonidan takaful yo'nalishini rivojlantirish uchun tegishli imkoniyatlar shakllantirilmogda. Takaful tamoyillari va mahsulotlarini bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son Qarorning yo'l xaritasida belgilangan bo'lib, ushbu yo'nalishda amaliy me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish jarayoni davom etmoqda. 2026-yil may oyida Markaziy bank IFSB bilan islom moliyasi sanoatini rivojlantirish yo'l xaritasi loyihasini muhokama qilgan bo'lib, unda islom sug'urtasi alohida yo'nalish sifatida ko'rsatilgan (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026).

Tadqiqotning maqsadi — Markaziy Osiyo mamlakatlarining takafulni tartibga solish bo'yicha qonunchilik tajribasini qiyosiy tahlil qilish, tartibga solish tayyorligini miqdoriy o'lchash metodikasini ishlab chiqish hamda shu asosda O'zbekiston uchun izchil institutsional yechimlar taklif etishdan iborat. Ilmiy yangiligi shundaki, mintaqa bo'yicha birinchi marta Takafulni tartibga solish tayyorligi indeksi (TTSI) ishlab chiqilib, besh davlat kesimida hisob-kitob qilingan va O'zbekiston uchun bosqichma-bosqich yo'l xaritasining kutilayotgan samarasi miqdoriy baholangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro amaliyotda takafulni tartibga solishning to'rt asosiy modeli ajratiladi: (1) alohida takaful qonuni; (2) umumiy sug'urta qonuni tarkibidagi maxsus bob; (3) faqat qonunosti hujjatlar orqali tartibga solish; (4) maxsus tartibga solishning umuman yo'qligi. Herawati va boshqalar (2024) Indoneziya, Malayziya, Pokiston va Turkiya misolida o'tkazgan qiyosiy tadqiqotda tartibga solish sifati takafulni qabul qilish darajasini belgilovchi uchta asosiy omildan biri ekanini asoslab bergan. Tadqiqotchilarning umumiy xulosasiga ko'ra, model tanlovining o'zi emas, balki uning uchta funksional elementni — ishtirokchilar fondining ajratilishi, islom moliyasi nazorati va ixtisoslashgan to'lov qobiliyati talablarini — qanchalik to'liq qamrab olishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu elementlarning islom moliyasi asoslari AAOIFning 26-son «Islom sug'urtasi» islom moliyasi standartida umumlantirilgan (AAOIFI, 2015). Alhammadi (2025) esa Indoneziya misolida takaful orqali erishiladigan moliyaviy inklyuzivlik iqtisodiy o'sish bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatib, tartibga solish sifatining makroiqtisodiy ahamiyatini asoslab bergan.

BenSaid (2025) Yaqin Sharqning o'n bitta takaful operatori bo'yicha 2012–2018-yillar ma'lumotlarida islom moliyasi nazorat kengashining hajmi, a'zolarining obro'si va malakasi moliyaviy natijadorlikning asosiy omili ekanini ko'rsatgan. BenSaid va Quttainah (2026) esa Yaqin Sharq va Janubiy Osiyoning o'n to'qqizta operatori bo'yicha 2016–2022-yillar tahlilida islom moliyasi kengashi sifatining moliyaviy barqarorlikka ta'siri chiziqli emasligini aniqlab, nazorat mexanizmini shakllantirishda mutanosiblikni saqlash zarurligini asoslagan. Qubbaja (2025) Falastin takaful kompaniyalari misolida likvidlik va moliyaviy leveraj rentabellikning statistik jihatdan ahamiyatli omillari ekanini ko'rsatgan — bu prudensial normalarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Xalqaro



standartlashtirish darajasida IFSB oxirgi yillarda tartibga solish arxitekturasini yakunlab bordi: IFSB-27 (2022a) tayanch tamoyillarni, IFSB-28 (2022b) qayta ko'rib chiqilgan to'lov qobiliyati talablarini, IFSB-29 (2023) bozor xulq-atvori nazoratini, IFSB-20 (2018) nazorat organi o'tkazadigan tekshiruv jarayonining asosiy elementlarini, IFSB-31 (2025a) islom moliyasi boshqaruvi ustidan samarali nazoratni (mazkur standart tarmoqlararo xarakterga ega), GN-10 (2025b) esa takaful tashkilotlarini tiklash va tugatish tartiblarini belgilaydi.

Mintaqaviy adabiyotlar asosan bank sektoriga qaratilgan. Nagimova (2023) Qozog'iston misolida ekspert intervyulari asosida talab diniy e'tiqoddan ko'ra narx jozibadorligi bilan bog'liqligini, asosiy cheklov esa taklif tomonida ekanini ko'rsatgan. Asadov va Turaboev (2023) O'zbekiston qonunchiligidagi to'siqlar orasida takafulni tartibga solishning yetishmasligini alohida qayd etgan, Asadov va boshqalar (2024) esa islomiy kapital bozoriga yashirin talab yuqori bo'lsa-da, tartibga solish bazasi yetarli emasligini asoslagan. Frumina (2025) MDH mamlakatlaridagi hamkorlik moliyasini qiyoslab, Qozog'istonning eng rivojlangan huquqiy bazaga ega ekanini, Qirg'izistonda esa 2023–2027-yillarga mo'ljallangan islom iqtisodiyoti platformasi konsepsiyasi qabul qilinganini ko'rsatgan. O'zbekistonda 2024-yil dekabrda BMT Taraqqiyot dasturi va Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hamkorligida o'tkazilgan ekspert muhokamasida asosiy to'siq sifatida «minimal zarur qonunchilik bazasi»ning yo'qligi — takaful fondini boshqarish, operatorning roli, regulyator nazorati va islom moliyasi kengashi vazifalari tartibga solinmagani qayd etilgan (UNDP, 2024). Moldakmatov va boshqalar (2025) mintaqaning to'rt davlatini qamrab, takafulni ayniqsa agrar mikromoliya uchun risklarni boshqarish vositasi sifatida baholab, asosiy to'siqlar qatorida tartibga solish bazasining rivojlanmagani keltirgan. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlarining takaful qonunchiligini tizimli qiyoslovchi va tartibga solish tayyorligini miqdoriy o'lchovchi tadqiqot aniqlanmadi. Mazkur bo'shliq ushbu maqolaning ilmiy o'rnini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy huquqshunoslikning funksional usuli qo'llanilgan: mamlakatlar qonunchiligi normalarining rasmiy nomlanishi bo'yicha emas, balki ular bajaradigan tartibga solish funksiyasi bo'yicha qiyoslanadi. Birlamchi manbalar sifatida besh davlatning amaldagi qonun hujjatlari, regulyatorlarning rasmiy hisobotlari hamda IFSB standartlari olindi.

Tartibga solish tayyorligini miqdoriy baholash uchun muallif tomonidan Takafulni tartibga solish tayyorligi indeksi (TTSI) taklif etiladi. Indeks IFSB-27 (2022a) tayanch tamoyillaridan kelib chiqadigan olti mezonidan iborat: K1 — birlamchi qonunchilik darajasi; K2 — «takaful» atamasining huquqiy maqomi (mezon terminologik aniqlikni litsenziyalash va nazorat uchun funksional shart sifatida baholaydi: atamaning qonunda mustahkamlanishi nazorat organiga faoliyat turini aniq ajratish imkonini beradi); K3 — institutsional model (mustaqil operator va/ yoki islomiy «oyyna»); K4 — islom moliyasi boshqaruvi talablari; K5 — ixtisoslashgan prudensial normalar; K6 — bozorning amaldagi holati. Har bir mezon 0 dan 4 gacha bo'lgan shkala bo'yicha baholanadi: 0 — mavjud emas; 1 — faqat siyosiy hujjatda yoki bilvosita qayd etilgan; 2 — qisman tartibga solingan; 3 — asosiy jihatlari bo'yicha tartibga solingan; 4 — to'liq va batafsil tartibga solingan.

Integral ko'rsatkich mezon ballarining yig'indisini maksimal mumkin bo'lgan qiymatga (24 ball) nisbati orqali aniqlanadi:

$$TTSI = (\sum K_i / 24) \times 100.$$

Talqin shkalasi: 0–25 ball — tartibga solish shakllanmagan; 25,1–50 — boshlang'ich bosqich; 50,1–75 — o'rta daraja; 75,1–100 — rivojlangan tartibga solish rejimi. Metodikaning cheklovlari sifatida quyidagilar qayd etiladi: mezonlar teng vaznli deb qabul qilingan, holbuki amalda ularning ta'siri turlicha bo'lishi mumkin; baholash ekspert xarakteriga ega; indeks normalarning mavjudligini o'lchaydi, ammo ularning huquqni qo'llash amaliyotidagi samaradorligini baholamaydi. Shu bois indeks mutlaq emas, balki qiyosiy va dinamik baholash vositasi sifatida talqin qilinishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Besh davlat qonunchiligining qiyosiy tahlili natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan (1-jadval).



1-jadval. Markaziy Osiyo mamlakatlarida takaful sug'urtasini tartibga solishning qiyosiy matritsasi (2026-yil holati)

Ko'rsatkich	Qozog'iston	Qirg'iziston	Tojikiston	Turkmaniston	O'zbekiston
Huquqiy asos turi	Umumiy sug'urta qonunida alohida bob	Umumiy sug'urta qonuni + batafsil nizom	Mavjud emas (faqat bank sohasi)	Mavjud emas	Mavjud emas (faqat yo'l xaritasi bandi)
Asosiy hujjat	126-II-son Qonun (2000), 6-1-bob, 36-1–36-7-moddalar (311-V-son Qonun, 2015)	89-son Qonun (2025) + VM 197-son Qarori (2026)	1108-son Qonun (2014) — islom banki	356-IV-son Qonun (2012) — umumiy sug'urta	O'RQ-730-son Qonun (2021); PQ-108-son Qaror (2024)
Qonundagi atama	«islom sug'urtasi» («takaful» ishlatilmaydi)	«takaful» — 8-moddadagi sug'urta turlari ro'yxatida	—	—	«takaful» faqat yo'l xaritasida; soliqda «islom sug'urta tashkiloti»
Regulyator	Moliya bozorini tartibga solish va rivojlantirish agentligi; Astana xalqaro moliya markazida — AFSA	Moliya bozorini tartibga solish va nazorat qilish xizmati	Tojikiston Milliy banki (bank)	Moliya vazirligi	Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (2023-y. 1-oktabrdan)
Islomiy «oyna»	Qonunda ko'zda tutilmagan	Ha — «islomiy oyna» qonunda ta'riflangan	—	—	Mavjud emas
Kompaniya darajasidagi islom moliyasi organi	Ha — islom moliyalashtirish tamoyillari kengashi	Ha — Islom sug'urta tamoyillari kengashi	Faqat islom kredit tashkilotlarida	Yo'q	Yo'q (sug'urta bo'yicha)
Minimal ustav kapitali	Ma'lumot ochiq emas	150 mln som (takaful uchun ham)	Hukumat belgilaydi	Qonunda yo'q	Qonunosti hujjatlarda
Operatorlar / bozor (2025–2026-yy.)	0 ta (25 ta sug'urtachidan hech biri islomiy emas)	«Oyna» modeli; 463 shartnoma, 5,49 mln som badal	0 ta	0 ta	0 ta

Manba: besh davlatning amaldagi qonun hujjatlari va regulyatorlarning rasmiy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (Qozog'iston Respublikasining 126-II-son Qonuni, 2000; Qirg'iziston Respublikasining 89-son Qonuni, 2025; Qirg'iziston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 197-son Qarori, 2026; Tojikiston Respublikasining 1108-son Qonuni, 2014; Turkmaniston Qonuni 356-IV-son, 2012; O'zbekiston Respublikasining O'RQ-730-son Qonuni, 2021).

Jadval to'rtta muhim xulosani ilgari suradi. Birinchidan, mintaqada takafulni tartibga solishning ikki xil huquqiy texnikasi shakllangan: Qozog'iston umumiy sug'urta qonuni tarkibiga alohida bob kiritish yo'lidan borgan, Qirg'iziston esa qonundagi normalarni batafsil qonunosti nizom bilan to'ldirgan. Ikkinchidan, terminologik farq muhim huquqiy oqibatga ega: Qozog'iston qonuni «islom sug'urtasi» tushunchasidan foydalanadi va «takaful» atamasini umuman qo'llamaydi, Qirg'iziston qonuni esa 8-moddadagi sug'urta turlari ro'yxatida «islom tamoyillari bo'yicha sug'urta — takaful» formulasini bevosita mustahkamlagan, 3-moddada esa islom sug'urta tashkiloti va islomiy «oyna» ta'riflarini bergan — bu litsenziyalash va nazorat amaliyoti uchun aniqlik yaratadi. Uchinchidan, faqat Qirg'iziston qonunchiligida «islomiy oyna» tushunchasi rasmiy ta'rifga ega bo'lib, an'anaviy sug'urtachiga yangi kapital talab qilmasdan takaful xizmatini ko'rsatish imkonini beradi. To'rtinchidan, huquqiy bazaning mavjudligi bozorning avtomatik shakllanishini kafolatlamaydi: Qozog'istonda tegishli normalar 2015-yildan buyon amal qilsa-da, 2026-yil holatiga mamlakatning yigirma beshta sug'urta tashkiloti orasida bironta islom sug'urta tashkiloti mavjud emas.

Qirg'iziston tajribasi alohida e'tiborga loyiq. Mamlakatda takaful bo'yicha qonunosti tartibga solish 2009-yildan beri sinovdan o'tgan, 2025-yil 29-apreldagi 89-son Qonun bilan esa institut qonun darajasiga ko'tarilgan. 2026-yil 27-martdagi Vazirlar Mahkamasining 197-son Qarori takaful operatorining vazifalari, mansabdor shaxslar va islom moliyasi kengashi a'zolariga qo'yiladigan malaka talablari, takaful fondlarini shakllantirish va joylashtirish tartibi kabi masalalarni batafsil belgilagan. Shu bilan birga, mamlakatning 2025-yildagi 10 076 mln somlik sug'urta bozorida takaful bo'yicha atigi 463 ta shartnoma tuzilib, 5,49 mln som badal yig'ilgan, ya'ni bozorning taxminan 0,05 foizini tashkil etgan (Moliya bozorini tartibga solish va nazorat qilish xizmati, 2026). Bu tartibga solish bazasining yaratilishi zarur, ammo yetarli shart emasligini yaqqol ko'rsatadi.




Yuqorida bayon etilgan metodika asosida besh davlat bo'yicha indeks hisoblandi (2-jadval, 1-rasm).

2-jadval. Takafulni tartibga solish tayyorligi indeksi (TTSI) hisob-kitobi, 2026-yil

Mezon (0–4 ball)	Qirg'iziston	Qozog'iston	O'zbekiston	Tojikiston	Turkmaniston
K1. Birlamchi qonunchilik darajasi	4	3	1	0	0
K2. «Takaful» atamasining huquqiy maqomi	4	1	1	0	0
K3. Institutsional model (operator, «oyna»)	4	2	0	0	0
K4. Islom moliyasi boshqaruvi talablari	3	2	1	1	0
K5. Ixtisoslashgan prudensial normalar	3	2	0	0	0
K6. Bozorning amaldagi holati	1	0	0	0	0
Jami ball (maks. 24)	19	10	3	1	0
TTSI (0–100 ball)	79,2	41,7	12,5	4,2	0,0

Manba: muallif hisob-kitoblari. Baholash shkalasi: 0 — mavjud emas; 1 — faqat siyosiy hujjatda qayd etilgan; 2 — qisman tartibga solingan; 3 — asosiy jihatlari bo'yicha tartibga solingan; 4 — to'liq tartibga solingan.



1-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlarining TTSI ko'rsatkichi va uning mezonlar bo'yicha tarkibi, 2026-yil

Manba: 2-jadval ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Natijalar mintaqada tartibga solish tayyorligining keskin tabaqalanganini ko'rsatadi. Qirg'iziston 79,2 ball bilan yagona mamlakat sifatida «rivojlangan tartibga solish rejimi» darajasiga chiqqan. Qozog'iston 41,7 ball bilan boshlang'ich bosqichda turibdi: uning huquqiy bazasi mustahkam, biroq terminologik noaniqlik, islomiy «oyna» rejimining yo'qligi va bozorning umuman shakllanmagani ko'rsatkichni pasaytiradi. O'zbekiston 12,5 ball to'plagan: PQ-108-son Qarordagi yo'l xaritasi bandi (K1) va O'RB-1126-son Qonun bilan Soliq kodeksiga kiritilgan «islom sug'urta tashkiloti» atamasi (K2), shuningdek bank sohasi bilan cheklangan Islom moliyasi kengashi (K4). Tojikiston 4,2, Turkmaniston esa 0,0 ball to'plagan.

IFSB standartlari talablari, mintaqaviy amaliyot va O'zbekistonning amaldagi holati qiyoslanib, bo'shliqlar tahlili amalga oshirildi (3-jadval).




3-jadval. O'zbekiston tartibga solish bazasining takaful nuqtayi nazaridan bo'shliqlar tahlili

Tartibga solishning zaruriy elementi (IFSB talablari)	O'zbekistondagi amaldagi holat	Mintaqadagi namuna	Taklif etilayotgan yechim
Takaful faoliyatining qonuniy ta'rifi va sug'urta sinflari tarkibiga kiritilishi	Mavjud emas: O'RQ-730-son Qonunda atama uchramaydi	Qirg'iziston: 89-son Qonun, 8- va 3-moddalar	O'RQ-730-son Qonunga «Takaful sug'urtasi» bobini kiritish
Ishtirokchilar fondining operator aktivlaridan ajratilishi	Tartibga solinmagan	Qozog'iston: 36-2-modda — islom sug'urta fondi	Fondni majburiy ajratish va alohida hisobga olish normasi
Operator haqi (vakillik/vakala) va daromad taqsimoti (muzoraba)	Tartibga solinmagan	Qozog'iston: 36-3-modda — operator vazifasi	Model va haq turini shartnomada oshkor qilish talabi
Taqchillikni qoplash (qarzi hasana) va ortiqcha mablag' (surplus) taqsimoti	Tartibga solinmagan	Qirg'iziston: 197-son Qaror, 12-bob	Qarzi hasana va surplus tartibini nizomda belgilash
Kompaniya darajasidagi islom moliyasi kengashi va a'zolarga malaka talablari	Sug'urta uchun talab yo'q	Qirg'iziston: 197-son Qaror, 5–6-boblar	Islom moliyasi kengashi majburiyligi va Agentlik bilan kelishuv tartibi
Milliy darajadagi islom moliyasi metodologiyasi organi	Faqat bank sohasida (Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi)	Tojikiston: islom bank xizmatlari bo'yicha maslahat kengashi	Kengash vakolatini sug'urta sohasiga kengaytirish
Ixtisoslashgan to'lov qobiliyati va zaxira normalari	Solvency II ga o'tish PQ-108 yo'l xaritasida rejalashtirilgan; takaful hisobga olinmagan	Qirg'iziston: 719-son Qaror — 150 mln som	IFSB-28 asosida alohida to'lov qobiliyati rejimi
Islomiy «oyna» rejimi	Nazarda tutilmagan	Qirg'iziston: 89-son Qonun, 3-modda (24-band)	Dastlabki bosqichda «oyna» modeliga ruxsat berish
Retakaful va soliq neytralligi	Retakaful tartibga solinmagan; soliq maqomi noaniq	Qozog'iston: islom qayta sug'urta tashkiloti shakli	IFSB-18 asosida retakaful normalari va soliq neytralligi

Manba: IFSB-27 (2022a), IFSB-28 (2022b), IFSB-18 (2016) va IFSB-31 (2025a) standartlari talablari hamda mintaqaviy qonunchilik asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekistonda takaful tizimini rivojlantirish hamda uni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish uchun quyidagi yo'nalishlarda huquqiy va institutsional poydevorni mustahkamlash imkoniyatlari mavjud. Ishtirokchilar fondini operator aktivlaridan aniq ajratish bo'yicha me'yoriy baza yaratilishi takaful shartnomalarini an'anaviy sug'urtadan huquqiy jihatdan yaqqol ajratib turishini ta'minlaydi. Institutsional darajada Islom moliyasi kengashi talabining kiritilishi taklif etilayotgan mahsulotlarning shariat mezonlariga to'liq mosligini kafolatlash imkonini beradi. Takaful fondining o'ziga xos tuzilmasini e'tiborga olgan holda maxsus to'lov qobiliyati rejimining ishlab chiqilishi esa PQ-108-son Qaror yo'l xaritasida belgilangan Solvency II standartlariga o'tish jarayonini yanada uyg'un va samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bo'shliqlar tahlili asosida uch bosqichli tartibga solish yo'l xaritasi taklif etiladi va uning har bir bosqichi TTSl ko'rsatkichiga ta'siri jihatidan baholanadi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston uchun taklif etilayotgan yo'l xaritasining TTSI ko'rsatkichiga kutilayotgan ta'siri

Manba: muallif hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan.

I bosqich (1–2 yil) — qonunchilik bazasini yaratish. «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-730-son Qonunga «Takaful sug'urtasi» bobini kiritish; takaful, takaful operatori, ishtirokchilar fondi va islomiy «oyna» tushunchalariga qonuniy ta'rif berish; takafulni sug'urta sinflari ro'yxatiga kiritish. Bu bosqich K1, K2 va K3 mezonlarini yaxshilab, indeksni 12,5 dan 45,8 ballga, ya'ni 33,3 ballga oshiradi — bu butun yo'l xaritasidagi eng katta bir martalik samaradir.

II bosqich (2–3 yil) — prudensial va islom moliyasi normalarini shakllantirish. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan takaful faoliyati tartibi to'g'risida nizom qabul qilinishi; ishtirokchilar fondini majburiy ajratish, taqchillikni qarzi hasana orqali qoplash va ortiqcha mablag'ni taqsimlash tartibining belgilanishi; kompaniya darajasidagi islom moliyasi kengashi majburiyligi va uning a'zolariga malaka talablarining joriy etilishi; IFSB-28 asosida alohida to'lov qobiliyati va zaxira normalarining ishlab chiqilishi. Bosqich indeksni 70,8 ballga (+25,0) ko'taradi.

III bosqich (3–5 yil) — bozorni ishga tushirish. Birinchi islomiy «oyna»lar va mustaqil operatorlarga litsenziya berilishi; Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi vakolatlarining sug'urta sohasiga kengaytirilishi yoki Agentlik tarkibida ixtisoslashgan islom moliyasi kengashi tashkil etilishi; IFSB-18 asosida retakaful normalarining joriy qilinishi va tabarru' badallari bo'yicha soliq neytralligining ta'minlanishi. Bosqich yakunida indeks 87,5 ballga yetadi. Bu ko'rsatkich Qirg'izistonning 2026-yildagi darajasidan (79,2 ball) yuqori bo'lsa-da, taqqoslash shartli xarakterga ega: Qirg'izistonning 197-son Qarori amaliyotga to'liq joriy etilishi bilan uning K5 va K6 mezonlari bo'yicha ballari ham oshishi kutiladi.

Mintaqaviy tajribadan kelib chiqadigan ikkita muhim saboq alohida ta'kidlanishi lozim. Birinchidan, Qozog'iston misoli ko'rsatadiki, qonun normasining o'zi bozorni yaratmaydi: 2015-yildan amal qilayotgan huquqiy baza operatorlar uchun rag'bat, soliq neytralligi va islomiy «oyna» mexanizmi bilan to'ldirilmagani sababli o'n yildan ortiq vaqt davomida bironta ham litsenziyalangan operator paydo bo'lmagan. Ikkinchidan, Qirg'iziston misoli ko'rsatadiki, «oyna» modeli bozorga kirishning eng arzon yo'li bo'lib, u yangi kapital talab qilmaydi va an'anaviy sug'urtachining mavjud infratuzilmasidan foydalanish imkonini beradi. Qozog'iston 2026-yil 16-yanvardagi 258-VIII-son Qonun bilan an'anaviy banklarga islomiy operatsiyalarni alohida islom banki tashkil etmasdan amalga oshirish huquqini bergani ham shu yo'nalishdagi harakatni ko'rsatadi (Qozog'iston Respublikasining 258-VIII-son Qonuni, 2026), biroq sug'urta sohasida bunday qadam qo'yilmagan. O'zbekiston uchun ushbu ikki saboqning birlashmasi — huquqiy bazani soliq va litsenziya rag'batlari bilan birga, «oyna» modelidan boshlab joriy etish — eng maqbul strategiya hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni ilgari surish imkonini beradi. Birinchidan, Markaziy Osiyoda takafulni tartibga solish darajasi nisbatan tabaqalangan: TTSI bo'yicha Qirg'iziston 79,2, Qozog'iston 41,7, O'zbekiston 12,5, Tojikiston 4,2, Turkmaniston 0,0 ball to'plagan. Ikkinchidan, O'zbekistonda takafulni joriy



etish asosiy huquqiy xususiyatga ega: to'qqizta zaruriy tartibga solish elementidan yettitasini qayta tartibga solish ehtiyoji mavjud. Uchinchidan, mintaqaviy tajriba huquqiy bazaning mavjudligi zarur, ammo yetarli shart emasligini isbotlaydi — Qozog'istonda o'n yildan ortiq amal qilgan normalar bozorni shakllantirmagan. To'rtinchidan, uch bosqichli yo'l xaritasini izchil amalga oshirish TTSI ko'rsatkichini 87,5 ballga yetkazishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1) «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-730-son Qonunga «Takaful sug'urtasi» deb nomlanuvchi alohida bob kiritish; bunda atamani boshidanoq «takaful» shaklida mustahkamlash maqsadga muvofiq: Qozog'istondan farqli o'laroq, Qirg'iziston qonunchiligida atamaning bevosita qo'llanilishi sug'urta turlari klassifikatsiyasida va litsenziyalashda aniqlik yaratgan.

2) Islomiy «oyna» institutini qonun darajasida ta'riflash va an'anaviy sug'urta tashkilotlariga takaful bo'limlarini ochish huquqini berish; bunda Qirg'izistonning 89-son Qonuni 3-moddasidagi ta'rif namuna sifatida qabul qilinishi mumkin.

3) Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan takaful faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida nizom qabul qilish; unda ishtirokchilar fondini majburiy ajratish, vakillik (vakala) haqi va muzoraba daromadining taqsimlanishi, taqchillikni qarzi hasana orqali qoplash hamda ortiqcha mablag'ni taqsimlash tartibi belgilanishi shart.

4) IFSB-27, IFSB-28 va IFSB-31 standartlarini milliy me'yoriy bazaga bosqichma-bosqich transpozitsiya qilish; O'zbekistonning IFSB bilan 2026-yilda boshlangan hamkorligi buning uchun qulay institutsional zamin yaratadi.

5) Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi vakolatlarini sug'urta sohasiga kengaytirish yoki Agentlik tarkibida ixtisoslashgan islom moliyasi kengashini tashkil etish; kompaniya darajasidagi islom moliyasi kengashlari a'zolariga malaka talablarini belgilash.

6) Tabarru' badallari, vakillik (vakala) haqi va takaful fondining investitsion daromadi bo'yicha soliq neytralligini ta'minlash; O'RQ-1126-son Qonun bilan Soliq kodeksiga kiritilgan islomiy moliya normalarini sug'urta sohasiga izchil kengaytirish.

Keyingi tadqiqotlar yo'nalishi sifatida TTSI metodikasini vaznli variantda ishlab chiqish, uni Markaziy Osiyodan tashqaridagi yangi bozorlarga (Ozarbayjon, Turkiya, Indoneziya) tatbiq etish hamda tartibga solish sifati bilan takaful bozori hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni panel ma'lumotlar asosida ekonometrik baholash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. AAOIFI (2015) Shari'ah standards for Islamic financial institutions. Manama: Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions. [Shari'ah Standard No. 26 'Islamic insurance'].
2. Alhammadi, S. (2025) 'Expanding financial inclusion in Indonesia through takaful: opportunities, challenges and sustainability', Journal of Financial Reporting and Accounting, 23(6), pp. 2738–2757. doi:10.1108/JFRA-05-2023-0256.
3. Asadov, A. and Turaboev, I. (2023) 'Legal challenges hindering the development of Islamic finance in Uzbekistan', Access to Justice in Eastern Europe, 6(4), pp. 129–143. doi:10.33327/AJEE-18-6.4-a000405.
4. Asadov, A., Turaboev, I. and Yildirim, R. (2024) 'Prospects of Islamic capital market in Uzbekistan: issues and challenges', International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management, 17(1), pp. 102–123. doi:10.1108/IMEFM-04-2022-0145.
5. BenSaid, Y.R. (2025) 'Shariah governance and takaful financial performance: the case of listed takaful insurances', Journal of Islamic Accounting and Business Research, 16(1), pp. 170–187. doi:10.1108/JIABR-09-2022-0236.
6. BenSaid, Y.R. and Quttainah, M.A. (2026) 'The determinants of takaful insurance financial stability: the moderating role of Shari'ah Supervisory Board', Journal of Islamic Accounting and Business Research, 17(5), pp. 977–998. doi:10.1108/JIABR-11-2023-0392.
7. Eurasian Development Bank, Islamic Development Bank Institute and LSEG (2025) The future of Islamic finance in Central Asia. Almaty: Eurasian Development Bank; Jeddah: IsDB Institute; London: LSEG.
8. Frumina, S.V. (2025) 'Razvitiye partnyorskogo finansirovaniya v stranakh SNG: opyt Kazakhstana i Kyrgyzstana' [MDH mamlakatlarida hamkorlik moliyasining rivojlanishi: Qozog'iston va Qirg'iziston tajribasi], Economic Problems and Legal Practice, 21(5), pp. 320–328. doi:10.33693/2541-8025-2025-21-5-320-328.
9. Herawati, R., Beik, I.S. and Sari, L.K. (2024) 'Unveiling takaful: a cross-country comparative study of Sharia insurance adoption in Muslim countries', International Research Journal of Economics and Management Studies, 3(11), pp. 25–33. doi:10.56472/25835238/IRJEMS-V3I11P103.
10. ICD and LSEG (2025) Islamic finance development report 2025: 50 years of exponential growth. Jeddah: Islamic Corporation for the Development of the Private Sector; London: LSEG.



11. IFSB (2016) IFSB-18: Guiding principles for retakāful (Islamic reinsurance). Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board.
12. IFSB (2018) IFSB-20: Key elements in the supervisory review process of takāful/retakāful undertakings. Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board.
13. IFSB (2022a) IFSB-27: Core principles for Islamic finance regulation [takāful segment]. Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board.
14. IFSB (2022b) IFSB-28: Revised solvency requirements for takāful/retakāful undertakings. Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board.
15. IFSB (2023) IFSB-29: Conduct of business supervision for takāful undertakings. Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board.
16. IFSB (2025a) IFSB-31: Guiding principles for effective supervision of Shari'ah governance. Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board.
17. IFSB (2025b) GN-10: Guidance note on recovery and resolution for takāful undertakings. Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board.
18. IFSB (2025c) Islamic financial services industry stability report 2025. Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board.
19. Moldakmatov, A., Idinov, K., Orozova, A. and Sulaimanov, A. (2025) 'Islamic principles of finance: features and prospects of their use in Central Asia', International Journal on Culture, History, and Religion, 7(SI1), pp. 765–790. doi:10.63931/ijchr.v7SI1.339.
20. Moliya bozorini tartibga solish va nazorat qilish xizmati (2026) Sug'urta faoliyati to'g'risida hisobot: 2025-yil yakunlari. Bishkek: Qirg'iziston Respublikasi Iqtisodiyot va tijorat vazirligi. Manba: <https://fsa.gov.kg> (murojaat sanasi: 12.08.2026).
21. Nagimova, A.Z. (2023) 'Islamic finance in Kazakhstan: the view of experts', Journal of Islamic Accounting and Business Research, 14(8), pp. 1195–1215. doi:10.1108/JIABR-09-2021-0265.
22. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2026) Islom moliyasi sanoatini rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi loyihasi IFSB bilan muhokama qilindi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 7-may. Manba: <https://cbu.uz> (murojaat sanasi: 12.08.2026).
23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-291-son Qarori (2023) 'Kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida', 2023-yil 2-sentabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/-6590025>
24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-108-son Qarori (2024) 'Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida', 2024-yil 1-mart. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <http://lex.uz/uz/docs/-6824178>
25. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-730-son Qonuni (2021) 'Sug'urta faoliyati to'g'risida' (yangi tahrir), 2021-yil 23-noyabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/ru/docs/-5739117>
26. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-1126-son Qonuni (2026) 'O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida', 2026-yil 27-mart. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/en/docs/-8099403>
27. Qirg'iziston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 719-son Qarori (2025) 'Sug'urta (qayta sug'urta) tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida', 2025-yil 5-noyabr.
28. Qirg'iziston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 197-son Qarori (2026) 'Islom tamoyillari bo'yicha sug'urtaga (takaful), yuklatilgan sug'urtaga va annuitet sug'urtasiga qo'yiladigan talablarni tasdiqlash to'g'risida', 2026-yil 27-mart.
29. Qirg'iziston Respublikasining 89-son Qonuni (2025) 'Sug'urta va sug'urta faoliyati to'g'risida', 2025-yil 29-aprel.
30. Qozog'iston Respublikasining 126-II-son Qonuni (2000) 'Sug'urta faoliyati to'g'risida', 2000-yil 18-dekabr (6-1-bob, 36-1–36-7-moddalar).
31. Qozog'iston Respublikasining 311-V-son Qonuni (2015) 'Sug'urta va islom moliyalashtirish masalalari bo'yicha ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida', 2015-yil 27-aprel.
32. Qozog'iston Respublikasining 258-VIII-son Qonuni (2026) 'Qozog'iston Respublikasida banklar va bank faoliyati to'g'risida', 2026-yil 16-yanvar.
33. Qubbaja, A. (2025) 'Determinants of Palestine takaful insurance companies profitability', Millah: Journal of Religious Studies, 24(1), pp. 459–490. doi:10.20885/millah.vol24.iss1.art13.
34. Tojikiston Respublikasining 1108-son Qonuni (2014) 'Islom bank faoliyati to'g'risida', 2014-yil 26-iyul.
35. Turkmaniston Qonuni 356-IV-son (2012) 'Sug'urta to'g'risida', 2012-yil 22-dekabr.
36. UNDP (2024) UNDP is opening new avenues for the takaful insurance. Tashkent: United Nations Development Programme Uzbekistan. Manba: <https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases> (murojaat sanasi: 12.08.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>